

## **ERONDA TARJIMASHUNOSLIK MAKTABLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI**

Asqarova D. S

O‘zDJTU o‘qituvchisi

Telefon:(94)619 02 92

[dilobar.asqarova.20.00@gmail.com](mailto:dilobar.asqarova.20.00@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Eronda tarjimashunoslik maktablarining shakllanishi va rivojlanishi tarixi haqida so‘z yuritildi. Ushbu maqolani yozishdan maqsad Erondagi tarjimashunoslik maktablarining qadimgi davrdan to hozirgacha bo‘lgan davrdagi ahvoli, tarjimadagi takomillashuv va uning tarjimadagi ahamiyatini o‘rganishdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** tarjima tarixi, ilk tarjimalar, tarjimashunoslik, sharq tarjimashunosligi.

Dunyo tarjima tarixi - dunyodagi juda ko‘p xalqlar adabiyotining o‘sib borish, shakllanish jarayonlarini va o‘zaro aloqalari qanday bo‘lganligini ham aks ettiradi. Tarjima jarayonlari yer yuzidagi xalqlarning insoniyat sivilizatsiyasini birgalikda, yaqin hamkorlikda yaratib borganini ko‘rsatadi. Ilk tarjimalar insoniyatning bir-biriga tomon ochgan karvon yo‘llarida tug‘ilgan. Folklor va xalqlarning turli o‘yinlari bilan tanishish va tomoshalarda tillardan-tillarga tarjimalar ishtiyoqi va ehtiyoji tug‘ilgan. Tarjima tarixi turli xalqlar adabiyotlarining bir-biridan ajralib, cheklanib qolganini emas, aksincha, hamma vaqt – juda qadim zamonlardan tortib hozirgi kungacha, bir-biriga intilib, yaqinlashib borganini, bir-biridan ta’sirlanib taraqqiy etganligini isbotlamoqda. Ilk tarjima namunalari odamzodning yodida qolmagan. Qadimgi zamonlardan bugungi kungacha tarjima Yer yuzining O‘rta Yer dengizi havzasi, Sharqda ikki daryo oralig‘ida yashovchi xalqlar (shumerlar, suryoniyalar, bobulliklar, ossuriyaliklar, xetlar), Misr, Eron, Hindiston, Xitoy, Turon mamlakatlari mintaqalarida ayni bir vaqtning, o‘zida ham ijtimoiy-madaniy aloqalar vositasi, ham yozma adabiyotning bir turi, tarmog‘i sifatida rivojlanadi. Bu shunday yirik madaniy hodisaki, tarjima adabiyotlari tarixidan ijtimoiy tuzumlar, tabaqalarning o‘zgarishlarinigina emas, insonning ongida kechgan o‘zgarishlarning evolyutsion jarayonlarini ham aniq kuzatish mumkin<sup>1</sup>.

Eronda ham tarjima o‘zining chuqur ildizlariga ega. Qadim zamonlardan oq muloqot qilish uchun tarjimaga ehtiyoj sezib kelingan. Eronda tarjimaning evolutsiyasi ko‘hna davrlardan oq shakllana boshlagan.

Fors tilida so‘zlashuvchi jamiyatlardan tashqarida, ayniqsa, G‘arb va Sharqda eronshunoslik qadim zamonlardan to hozirgacha rivojlanib bormoqda. Buni G‘arb misolida amerikalik, eronlik, eronlik-amerikalik olimlarning ilmiy ishlarida ham kuzatishimiz mumkin. XVII asrda Yevropada fors tiliga qiziqish kuchayib bordi va olimlar Erondagi qadimiy tillarni o‘rganib, u yerdagi din va sivilizatsiyani o‘rganib, qadimgi forscha matnlarni Yevropa tillariga tarjima qilganlar<sup>2</sup>.

Eronda tarjimaning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Yozma manbalarga ko‘ra, Ahamoniylar davridanoq shakllanganligi aytib o‘tilgan. Persepolis shahridan topilgan yozma yodgorliklar turli tillarda: asl matn qadimgi fors tilida, uning tarjimalari esa, bobil va elam tillarida yozilganini

<sup>1</sup> G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012. – B. 50-51.

<sup>2</sup> Talatoff K. Persian language, literature and culture. – New York: Routledge, 2015. – P. 22.

tasdiqlaydi. Ushbu bitiklarni Erondagi ilk tarjima tarixiga oid dalillar deb hisoblash mumkin. Qadimgi fors (pors) tili Parfiya, Midiya va Ahamoniylar davrida o‘zaro farqlarga ega edi. O‘sha davrda Babil va Elam yozuvlari ham xalqlar orasida rivoj topgan, shu sababdan Ahamoniylar podshohlari o‘zlarining bir necha tilli xalq ekanliklaridan faxrlanardilar. Ushbu imperiyaning kengayishi, atrofdagi qo‘shni davlatlar bilan aloqalarning mustahkamlanishi, shuningdek, qadimgi fors tilidagi o‘zgarishlar Eronda boshqa turli tillarda so‘zlashuvchilarning madaniyati bilan ularni yaqinlashtirdi, hamda boshqa tillardagi matnlarni tarjima qilish eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Hukumat bu ish uchun mohir va malakali kotiblarni jalb qilgan. Eronda islom dini yoyilishidan oldin tarjima madaniy va adabiy faoliyatning bir turi sifatida faoliyat yuritgan. Bu davrda pahlaviy, suryoniy, yunon, sanskrit tillaridan qadimgi fors tiliga juda ko‘p tarjimalar amalga oshirilgan. Shuningdek, bu davrda “Qirq hadis”, Aflotun va Arastu asarlari adabiy, diniy-falsafiy asarlar sifatida tarjima qilingan. Eronga islom dini kirib kelganidan keyingi davrda ya’ni Sosoniylar davridan so‘ng, o‘rta asrlarda islom dini asta-sekin qo‘shni mamlakatlarga ham tarqala boshladi. Keyingi yuz yillikda Qur’onning pahlaviy tiliga so‘zma-so‘z tarjimasi, ko‘plab olimlarning asarlarini arab tiliga tarjima qilish ishlari kuchayib bordi. Mo‘g‘ullar istilosidan oldingi davrda ya’ni islom dini kirib kelganidan keyin Eron-islom sivilizatsiyasi degan tushuncha shakllandi va bu avvalgi sivilizatsiyalar ilmiy asarlarini arab tiliga tarjima qilinishiga turtki bo‘ldi. Tarjima nafaqat adabiy va falsafiy asarlar almashinuvida balki, Xorazmshohlar davrida tijorat, diniy va diplomatik aloqalar o‘rnatish uchun ham qo‘llanilgan. Ilmiy, diniy, she’riy, adabiy hamda tarix va falsafaga oid asarlar tarjima qilinib, turli madaniyat va adabiyotlarning rivojlanishi va boyishiga sabab bo‘ldi. Safaviylar va undan keyingi davrdagi tarjima. Safaviylar davrida Eronning Yevropa davlatlari bilan o‘zaro aloqalarining kengayishi Yevropa tillaridan tarjimalarning keng tarqalishiga olib keldi. Ayni o‘sha davrda Hindistonda Akbarshoh va uning vorislari hukmronlik qilayotgan paytda hind adabiyotining ko‘plab muhim asarlari fors tiliga tarjima qilingan. Qojarlar davrida tarjima Eronga xorijiy harbiy delegatsiyalarning, xususan, fransuzlarning kirib kelishi bilan bog‘liq edi. O‘sha davrda Tabrizda ilk bosmaxona tashkil etilib, bu harakat tarjima taraqqiyoti, tanlangan asarlarning arab tiliga tarjimasi bilan izohlanadi. Nasriddinshoh davrida dorilfunun tashkil topishi bilan tarjima sohasi yanada o‘zib, ko‘plab o‘zgarishlarga uchradi. Amir Kabir dorilfununni tashkil qilgach, yevropalik muallimlar va tarjimonlarni taklif qilishi bilan birga, bir qancha yevropalik ilmli, ziyoli insonlarni, chet tillari va turli fanlardan xabardor bo‘lgan ziyoli eronlik muallimlarni ham ishga oldi. O‘n to‘qqizinchi asrning oxirlarida ayrim o‘zgarishlar Eronda tarjima davrining uyg‘onish davri bo‘lishiga olib keldi. Bir yarim asrlik beqarorlikdan so‘ng, Qojarlar mamlakatda tartib va barqarorlik o‘rnatdi. Eronlik talabalarni Yevropaga yuborib, Yevropa bilan muntazam madaniy aloqalarni asta-sekinlik bilan yo‘lga qo‘ydi. Eronga toshbosma usulining kirib kelishi bilan fors matbuoti va yangi vujudga kelgan kitob chop etish sanoati boshlandi va bularning bari Yevropa tillari bilan ko‘proq tanishishga, tarjima ishlarining jonlanishiga sabab bo‘ldi. Shunday qilib, Eron yigirmanchi asrga katta o‘zgarishlar bilan qadam qo‘ydi. Pahlaviylar hukmronligi davrida ham Eron madaniyati va adabiyotida tarjima muhim o‘rin tutgan. Bu davrda shohning modernizm va g‘arblashtirish siyosati ta’sirida g‘arbning bilim va tajribalarini o‘rganib, undan foydalanish maqsadida tarjima yanada ko‘proq rivojlandi. O‘ttizinchi yillarda Tehronda dunyoga mashhur asarlarni tarjima qilish maqsadida kitob tarjimasi va nashri uchun alohida kompaniya tashkil etildi. Shuningdek, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy muassalar tomonidan xorijiy tillardan ilmiy va ixtisoslikka oid kitoblar tarjima qilindi. 1979-yil Islom inqilobidan so‘ng, mamlakatda tarjimaga siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Madaniyat va adabiy

sohada ham islomiylashtirishga urg‘u berilib, adabiy, islomiy xususan, shia madaniyatiga oid asarlarni tarjima qilish birinchi o‘ringa qo‘yildi. Bu tarjimalar asosan, falsafa, adabiyot, tarix va islom ilmlariga oid sohalarga qaratilgan edi<sup>3</sup>.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Eronda tarjima faoliyati qadimgi davrlardan boshlanib, o‘zaro savdo-sotiq va do‘stlik aloqalarini o‘rnatishda, ilm-fan va madaniyat, tibbiyot kabi bir qancha sohalarni boyitishda alohida ahamiyat kasb etdi. Pahlaviylar davrida esa, modernizm va g‘arblashtirish sababli Yevropa adabiyotidan tarjimalar soni ko‘payib, g‘arb tajribasini o‘rganishga ko‘proq e‘tibor qaratildi va bu tarjima faoliyatida o‘zgacha davr bo‘ldi. Islom inqilobidan so‘ng, mamlakatni islomiylashtirish, barcha sohalarni islomga munosib isloh qilish maqsadida tarjimashunoslik sohasida ham arab tilidan tarjima qilish jarayonlari kuchaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Talatoff K. Persian language, literature and culture. – New York: Routledge, 2015. – 45 p.
2. G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012. – 212 b.
3. <https://eshraghtrans.com.tarikhche-va-siereh-tarjomeh-dar-iran>

---

<sup>3</sup> <https://eshraghtrans.com.tarikhche-va-siereh-tarjomeh-dar-iran>